DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.18431799

MAKTAB YOSHIDAGI O‘SMIRLAR O‘RTASIDA DELINKVENT, ADDIKTIV VA AGGRESSIV XULQ-ATVOR PROFILAKTIKASIGA OID TRENING MASHG‘ULOTLAR

Xolmirzayeva To‘xtaxon Abdumutalliyena
Namangan viloyati Uychi tumani
3-maktab, kasbga yo‘naltiruvchi psixolog
xolmirzayevatoxtaxon@gmail.com

Qosimova Nigora Xasanovna
Namangan viloyati Uychi tumani
38-maktab, amaliyotchi psixolog

Otamirzayeva Matluba Xayritdinovna
Namangan viloyati Uychi tumani
21- maktab, amaliyotchi psixolog

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola o‘smirlarning addiktiv, delinkvent va agressiv xatti-harakatlari va xul-atvorlarini aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan mashg‘ulotlar haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Ushbu xulq-atvorlarni keltirib chiqaruvchi omillar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar*: delinkvent, addiktiv, agressiv, autodestruktiv xulq-atvor, trening, bartaraf etish, omillar.*

DELINKVENT, ADDICTIVE AND AGGRESSIVE BEHAVIORAL PREVENTION TRAINING AMONG SCHOOL-AGE ADOLESCENTS

Kholmirzayeva Tokhtahan Abdumutalliyena
Uychi district, Namangan province
School No. 3, career guidance psychologist
xolmirzayevatoxtaxon@gmail.com

Kasimova Nigora Khasanovna
Uychi district, Namangan province
School 38, a practicing psychologist.

Otamirzayeva Matluba Khayritdinovna
Uychi district, Namangan province
School 21, practicing psychologist

ANNOTATION

This article is a summary of adolescent addictive, delinquent, and aggressive behaviors and activities aimed at identifying and eliminating their hooligans. The factors that cause these behaviors are mentioned.

***Key words**: delinkvent, addictive, aggressive, autodestructive behavior, training, elimination, factors.*

ТРЕНИНГ ПО ПРОФИЛАКТИКЕ ПРАВОНАРУШЕНИЙ, АДДИКТИВНОГО И АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ СРЕДИ ПОДРОСТКОВ ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Холмирзаева Тохтахан Абдумуталлиена
Уйчинский район, Наманганская область
Школа № 3, психолог по профориентации
xolmirzayevatoxtaxon@gmail.com

Касимова Нигора Хасановна
Уйчинский район, Наманганская область
Школа №38, практикующий психолог.

Отамирзаева Матлуба Хайритдиновна
Уйчинский район, Наманганская область
Школа № 21, практикующий психолог

АННОТАЦИЯ

Эта статья представляет собой краткое изложение аддиктивного, делинквентного и агрессивного поведения подростков, а также мероприятий, направленных на выявление и устранение их хулиганов. Перечисляются факторы, вызывающие такое поведение.

***Ключевые слова**: делинквентное, аддиктивное, агрессивное, аутодеструктивное поведение, обучение, элиминация, факторы.*

Bugungi kunda o‘smirlar bilan muomala qilish, ularga murojaat qilish va qolaversa murojaat qilganda hushyor bo‘lish, ularning psixologik holatini hisobga olish va so‘zlarni saralashni talab qiladi. Chunki bugungi o‘smirlarda delinkvent, addiktiv, agressiv va autodestruktiv xulq-atvorlar dominantlik qilmoqda. Bu xulq-atvorlarni tahlil qilsak, delinkvent xulq-atvor - bu voyaga yetmagan shaxsning qonunni buzadigan xatti-harakati hamda jamiyatda va ayni vaqtda o‘rnatilgan huquqiy me’yorlardan og‘ishgan, jamoatchilik tartibiga xavf soluvchi muayyan shaxs harakatidir. Delin-quent so‘zi lot, “nojo‘ya xatti-harakat, aybdorlik” ma’nolarini anglatadi.[1] Addiktivlik esa biror mashg‘ulotga yoki odatga mukkasidan ketish, berilib ketish yoki tark etish mushkul darajada rujo‘ qo‘yish bilan tavsiflanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, addiktiv xulq-atvor shakllanishining asosiy sabablari quyidagilar:

[1] https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0095/95_i_20250524_193239_3.5.pdf

1. Shaxsiy-psixologik omillar (past o‘zini o‘zi baholash, stress holatlarini boshqara olmaslik, xavotirlilik darajasining yuqoriligi)

2. Oilaviy omillar (notinch oila muhiti, ota-onalar tomonidan e’tiborsizlik, oilada addiktiv xulq-atvor namunalarining mavjudligi)

3. Ijtimoiy-madaniy omillar (tengdoshlar bosimi, salbiy ijtimoiy muhit ta’siri, addiktiv xulq-atvorni romantiklashtiruvchi madaniy kontekst)

4. Biologik omillar (genetik moyillik, markaziy asab tizimining xususiyatlari)[1]

Agressiya deganda esa boshqa shaxsga yoki narsaga nisbatan zo‘ravonlik yoki tajovuzkorlik bilan harakat qilish tushuniladi. Agressiya quyidagi turlarga bo‘linadi:

Jismoniy agressiya - boshqa shaxsga jismoniy zarar yetkazishni o‘z ichiga oladi. **So‘zli agressiya**- haqorat, tahdid yoki shafqatsiz so‘zlar bilan boshqalarga psixologik zarar yetkazish.

Passiv agressiya - To‘g‘ridan-to‘g‘ri zo‘ravonlik ko‘rsatmasdan, bilvosita yo‘llar bilan boshqalarni xafa qilish yoki ularga zarar yetkazish.

O‘z-o‘ziga qaratilgan agressiya - Shaxsning o‘ziga nisbatan zo‘ravonlik yoki o‘zini jazolash xatti-harakati.

Agressiyaning namoyon bo‘lishiga turli omillar ta’sir ko‘rsatadi: **Biologik omillar** - genetik moyillik, miya kimyosi (masalan, serotonin va dopamin darajasining o‘zgarishi), gormonal o‘zgarishlar (testosteron darajasining ko‘tarilishi) agressiv xatti-harakatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Psixologik omillar - Shaxsiyatning o‘ziga xos xususiyatlari, masalan, impulsivlik, past o‘zini tuta bilish, stressga chidamsizlik agressiyani kuchaytirishi mumkin.

Shaxsiyati va xarakter - Ba’zi o‘smirlar tabiatan ko‘proq agressiv bo‘lishi mumkin. Bu ularning shaxsiyati va xarakteriga bog‘liq.

Stress va kayfiyat buzilishlari - O‘smirlik davrida stress, depressiya va boshqa kayfiyat buzilishlari agressiv xulq-atvorni kuchaytirishi mumkin.

[1] https://cyberleninka.ru/article/n/addiktiv-xulq-atvor-profilaktikasi-zamonaviy-yondashuvlar-va-samarali-strategiyalar

O‘zini hurmat qilishning pastligi - O‘zini hurmat qilishning pastligi o‘smirlarni boshqalarga nisbatan agressivroq qilishi mumkin.

Ijtimoiy omillar - Oiladagi zo‘ravonlik, noto‘g‘ri tarbiya, ijtimoiy adolatsizlik, kambag‘allik, ta’lim va madaniy darajaning pastligi agressiv xatti-harakatlarni rag‘batlantirishi mumkin.

Oila muhiti - Oila ichidagi zo‘ravonlik, qattiq qoidalar yoki hissiy jihatdan sovuqlik o‘smirlarda agressiv xulq-atvorni shakllantirishi mumkin.

Do‘stlar va ijtimoiy muhit - O‘smirlar do‘stlari va tengdoshlari ta’sirida qolishi mumkin. Agar ularning do‘stlari agressiv xulq-atvorni qo‘llasa, bu o‘smirlarni ham shunday qilishga undashi mumkin.

Media va video o‘yinlar – Zo‘ravonlikka asoslangan filmlar, video o‘yinlar va ijtimoiy tarmoqlar o‘smirlarda agressiv xulq-atvorni kuchaytirishi mumkin.

Muhitiy omillar - Atrof-muhitning zo‘ravonlikka moyil bo‘lishi (masalan, zo‘ravonlik bilan bog‘liq ko‘rsatuvlar, videoo‘yinlar) shaxsning agressivlik darajasini oshirishi mumkin.

Yuqoridagi omillarni tushungan va hisobga olgan holda ularni bartaraf etish uchun trening mashg‘ulotlarini tashkil qilish psixologlar, o‘qituvchilar, mas’ullar, ota-onalar va vasiy yoki homiylarga mas’uliyatli vazifa yuklaydi. Trening mashg‘ulotlar O‘smirlarni his tuyg‘ularini, o‘zligini anglash va ularni boshqarish, o‘z o‘zini hurmat qilishni rovojlantirish, mustaqil qarorlar qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirish va salbiy bosimlarga qarshilik qilish ko‘nikmasini shakllantirishni ko‘zda tutishi lozim. Bunday treninglardan bir nechtasini misol keltirish mumkin. Masalan, “To‘xta – O‘yla – Harakat qil”, “G‘azab shkalasi” (Anger Thermometer), “Konfliktni hal qilish” rolli o‘yini, “Bosim va rad etish”, “Hayot daraxti” yoki “Kelajak vizasi”, “Internet va telefon vaqti” monitoringi, “Qonuniy va noqonuniy chegaralar”, “Mas’uliyat zanjiri”, “Ijobiy alternativlar”, Art-terapiya, Metaforik kartalar bunday negative xulq-atvorlarni ijobiy tarafga o‘zgartirish profilaktikasida muhim mashg‘ulotlardir.

FOYDALANAILGAN ADABIYOTLAR

1. “Amaliy psixologiya” – Narzulla Boymurodov. Toshkent “Yangi as avlodi” 2008y

2. www.ziyouz.com kutubxonasi

3. https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0095/95_i_20250524_193239_3.5.pdf

4. https://cyberleninka.ru/article/n/addiktiv-xulq-atvor-profilaktikasi-zamonaviy-yondashuvlar-va-samarali-strategiyalar

5. https://evland.ru/lyudyam-s-invalidnostyu/

6. https://www.pnp.ru/politics/zakony-vstupayushhie-v-silu-s-14-noyabrya-2.html

7. http://itam.irk.ru/abilimpiks/index.php?option=com_content&view=category&id=8&Itemid=127

8. https://bazanpa.ru/fz-ob-obrazovanii-v-rf/glava11/statya83/

9. https://nnovcons.ru/files/priem2022/priem_pravila_2022_p.pdf